

# KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING AQLIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHLTLARI

**N. Jumanova**, JDPI Umumiy psixologiya kafedraasi o'qituvchisi.

**Vahobova Muxtabar**- Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 1-bosqich magistri.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarning aqliy qobiliyatini rivojlantirishning psixologik jihatlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** qobiliyat, sezgilar, diqqat, intellekt, tafakkur.

O'qish faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchining aql-idroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi, eslab qolish va esga tushirish imkoniyatlarining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Shu yoshdagi bola idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqqolligi o'zining qiziquvchanligi, ishonuvchanligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi.

Kichik maktab davrida o'qish faoliyati bilan shug'ullanish, jumladan, moddiy narsalarning har xil xossalari bilan tanishish sezgilarning o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda asosan farq qila olish, ko'rish va eshitish sezgilari ayniqsa tez o'sadi. Kichik maktab o'quvchilarini rasm chizishga o'rgatish ranglarni farqlash sezgirligining o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ohanglarni farq qilish sezgirligi, ayniqsa bolalarga musiqa va ashula o'rgatish jarayonida kuchli suratda o'sadi. Sezgilarning o'sishida shuningdek, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining ham ahamiyati katta. Aniq harakat qilishga jalb etuvchi mashqlar bolalarning muskul-harakat sezgilarini o'stiradi.

Kichik maktab davriga kelib idrokning hamma turlari asosan ta'lim-tarbiya tufayli mazmun, aniqlik, ravshanlik jihatdan ko'p darajada takomillashadi. Mazkur yoshdagi bolalar o'z idroklarining aniqligi, ravonligi, o'tkirligi bilan boshqa Yosh davrdagi insonlardan keskin farq qiladi. Ular har bir narsaga berilib, o'ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Birinchi sinfga kelgan bola predmetlarning rangi, shakli va kattaligini, ularni maqonda joylashishini bilish bilan, birga ularni taqqoslay oladi. Maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun bola sensor rivojlanganlik darajasining yuqori bo'lishi juda muhim hisoblanadi. Maktab Yoshiga kelib, normal rivojlanayotgan bolalar rasm va suratlar real hayotni aks ettirayotganligini yaxshi tushunadilar. Shuning uchun ham surat va rasmlarda nimalar aks etganini real hayotga taqqoslagan holda bilishga harakat qiladilar. Bola rasmlarda atrof-hayotdagi narsalarni kichiklashtirib tasvirlanganligini anglay biladi. Bu tasvirlar bolalarda estetik va badiiy didni rivojlantiradi. Chunki, bola shu rasmlar orqali olam go'zalligini, uning turfa ranglardan iborat ekanligini anglaydi, ajratadi va o'z munosabatini bildiradi. Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarda ixtiyoriy idrok va kuzata olish qobiliyati o'sadi. Kuzata bilish muvaffaqiyatli o'qish uchun zarur shartlardan biridir. O'quvchilarda kuzata bilish qobiliyati ularning tafakkuri, irodasi, qiziqish, havaslari bilan birgalikda o'sib boradi. Bu Yoshdagi o'quvchilar o'z idroklarini mustaqil idora eta oladilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari katta yoshdagi odamlardan deyarli qolishmasdan to'g'ri chiziqni ko'z bilan chamalab teng ikki bo'lakka bo'la oladilar, narsa va chiziqlarni katta-kichikligiga qarab taqqoslay oladilar, narsalarning fazoda turgan o'rnini, ularning qaysi biri yaqinroq yoki uzoqroq, qaysi biri balandroq yoki pastroq joylashganini ko'z bilan chamalab, shu masofani bosib o'tish uchun talab qilinadigan vaqtni ham taxminan hisoblay oladilar.

Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqatni irodaviy

zo'r berish bilan boshqarish va vaziyatga moslash imkoniyati yaxshi bo'lmaydi. Buning asosiy sababi, ularda ixtiyoriy diqqatning kuchsizligi va beqarorligidir. Bolalarda ixtiyorsiz diqqat ko'proq rivojlangan bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quv materiallarining yaqqolliqi, yorqinligi, jozibadorligi, o'quvchida beixtiyor his-tuyg'ularni uyg'otadi va kuchli irodaviy zo'riqishsiz fan asoslarini egallash imkonini beradi. 1-2 sinf o'quvchilari diqqatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri - uning etarlicha barqaror emasligidir. Shuning uchun ham ular o'z diqqatlarini uzoq muddat muayyan narsalarga qarata olmaydilar va diqqat ob'ektlari ustida uzoq tura olmaydilar. Ta'lim jarayoni kichik maktab Yoshidagi o'quvchilarning ixtiyoriy, barqaror, mustahkam, kuchli, faol ongli diqqatni rivojlantirishga qulay shart-sharoit yaratadi. Bilim olish jarayonida mustaqil aqliy mehnat qilish, misol-masalalar yechish, mashqlar bajarish, takrorlash irodaviy zo'r berish jarayonida ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi. Bu Yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqatni to'plash, tashkil qilish, uni taqsimlash, ongli ravishda boshqarish uquvi shakllana boshlaydi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Jumanova, Nasiba Sherbayevna, & Abduvaliyeva, Nilufar Ne'Matulla Qizi (2022). O'SMIRLARDA SALBIY XULQ-ATVOR NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (2), 625-629.
2. Jumanova, N. SH., Toshpulatova, N. X., & Komilova, A. S. (2016). Razvitiye innovatsionnix sistem v obrazovanii. *Molodoy ucheniy*, (4), 777-778.
3. Jumanova, N. (2021). XARAKTERISTIKI PROBUJDENIYA BOLSHOY GRUPPI DETEY LYUBOV K LITERATURE. *Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii*, 1(1). izvlecheno ot <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1366>
4. Jumanova, N. (2021). PROFILAKTIKA PSIXOLOGICHESKIX DEFEKTOV V RAZVITII LICHNOSTI. *Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom*

obrazovani, 1(1). izvlecheno ot

<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1365>

5. Nasiba Jumanova, SELI I ZADACHI AKTIVATSII, USKORENIYA PEDAGOGICHESKIX TEXNOLOGIY , Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovani: Tom 1 № 1 (2021): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari

6. Obidova, D., & Nasiba, J. ANALYSIS OF THE ACTIVITIES OF HEALTH CARE INSTITUTIONS: PROSPECTS FOR THE APPLICATION OF PSYCHOLOGICAL KNOWLEDGE.

7. Sherboevna, N. J. (2020). THE USE OF INTEGRATED TECHNOLOGIES IN THE CULTIVATION OF CHILDREN'S SPEECH IN PRESCHOOL EDUCATION. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(2).

8. Jumanova, N., & Abduvalieva, N. A. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovani, 2(5). izvlecheno ot <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5107>

9. Jumanova, N. (2020). AKTUALNIYE VIZOVI SOVREMENNOY NAUKI. Arxiv Nauchnix Publikatsiy JSPI.

10. Atamurodova, R. K., Jumanova, N. SH., & Alimkulov, S. O. U. (2016). Vzglyadi uchyonix srednevekovya o dushe cheloveka. Problemi pedagogiki, (8 (19)).

11. Jumanazarova, Dilnoza Umurzaqovna and Soyibnazarova, Muqaddas Norpulatovna (2022) "SOME CONSIDERATIONS ON THE CLASSIFICATION OF SPIRITUAL AND MORAL VIRTUES, " Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal: Vol. 2022 : Iss. 1 , Article 13.

14. Norpulatovna, S. M. (2021, January). THE PROBLEMS OF HUMANITY IN PHILOSOPHICAL SCIENTIST. In Euro-Asia Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 478-479).
15. Soibnazarova, M. (2022). ЁШ АВЛОДНИНГ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ТАРБИЯСИДА МУТАФАККИРЛАРНИНГ ФИКРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5573>
16. Sanakulova, Z. A., & Soibnazarova, M. N. (2017). Modular training as a pedagogical technology. Pedagogicheskoe masterstvo: X Mezhdunarodnaya nauchnaya konferentsiya, Moskva, iyun'2017.
17. Munarova, R. N. O. S., & Soibnazarova, M. N. L. (2022). ONTOGENEZNING TURLI DAVRLARIDAGI SHAXS IQTIDORINI NAMOYON BO'LIH JIHATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(2), 682-688.
18. Majidov, J. (2021). ШАХСГА ТИЗИМЛИ ЁНДАШИШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (3). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4325>
19. Majidov, Jasur Baxtiyarovich (2022). SOTSIAL INTELLEKT VA UNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (2), 608-613.
20. Malikaxon Qodirova, [МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING BILISH QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH](#), Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 3 (2021): Zamonaviy ta'limda [Pedagogika va psixologiya fanlari](#)
21. Malikaxon Qodirova, [МАШҒУЛОТЛАР ВА УЛАРНИНГ БОЛА ИДРОКИНИ ШАКЛЛАНИШИДАГИ АҲАМИЯТИ](#), Журнал Педагогика и

[психологии в современном образовании: № 1 \(2021\): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari](#)

22.Malikaxon Qodirova, [ВОСПРИЯТИЕ " Я " У ДЕТЕЙ](#), [Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 1 \(2020\): Journal of Pedagogy and psychology in modern education](#)

23.Malikaxon Qodirova, [ЧЕЛОВЕК И СТРЕСС](#), [Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 1 \(2020\): Journal of Pedagogy and psychology in modern education](#)

24.Jumanova, N. (2021). ХАРАКТЕРИСТИКИ ПРОБУЖДЕНИЯ БОЛЬШОЙ ГРУППЫ ДЕТЕЙ ЛЮБОВЬ К ЛИТЕРАТУРЕ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1366>

25.Jumanova, N. (2021). TA'LIM BERISH JARAYONIDA TALABANING PEDAGOGIK IJODKORLIGINI SHAKLLANTIRISH. *Scienceweb academic papers collection*.

26.Jumanova, N. (2021). FAOLASHTIRUVCHI, JADALLASHTIRUVCHI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING MAQSAD VA VAZIFALARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(1)*.